



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 1

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

FEBRUARY 2024

WWW.AJERUZ.COM

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VAQT TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH

Kazbekova E.M.

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz
Nukus sity, Karakalpakstan

Abstract: *The article talks about the method of using the electronic educational methodical guide in teaching the time category in the formation of mathematical concepts in preschool children.*


Key words: *elementary mathematics, time category, information communication technologies, electronic educational resources*

Introduction. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari: kommunikativ kompetensiya, o‘yin kompetensiyasi, ijtimoiy kompetensiya, bilish kompetensiyalari ham alohida belgilab berilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematikani o‘rgatish bilan birga vaqt kategoriyalari haqidagi tushunchalarni farqlay bilishi va shu so‘zlardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatib, mustahkamlab boriladi. Vaqt kategoriyalari haqidagi tushunchalarni o‘rgatishda har xil usullardan foydalansa bo‘ladi. Masalan, tarbiyachi sutka qismlari: ertalab, kunduz, kechqurin, tun haqidagi tasavvurlarini ko‘rgazmali materiallar, didaktik materiallar bilan, AKT bilan ham o‘rgatishi va mustahkamlashi mumkin.

Sutka qismlarini har xil ranglar bilan belgilab, ularning har birini bunday vaqtlarda qanday ishlar qilishimiz, tunda uxlab, orom olishimiz, uyqudan uyg‘ongan vaqtimiz ertalab bo‘lishi, quyosh chiqib olam farovon bo‘lgan vaqt kunduz, quyosh bota boshlagan vaqt kechqurun bo‘lishini, kechqurun asta-sekin tunga aylanishini va bu bir sutka bo‘lishini tushintirib borish kerak.

Shuningdek, bu mavzular bo‘yicha har xil test ko‘rinishidagi topshiriqlarni tuzish mumkin. iSpring dasturining interaktiv test bo‘limi orqali vaqt kategoriyalari haqida bir qancha topshiriqlar tuzish imkoni bor. iSpring dasturidan testi bo‘limidan Noviy test ga kiriladi. Test dasturidagi Vopros testa bo‘limidagi 11 xil test savollari ichidan Poryadok bo‘limi tanlanib, topshiriq va javoblari beriladi. Bu dasturda savol va topshiriqlar rasmlar bilan, ovoqli, video ko‘rinishida ham beriladi.



Bu yerda sutka qismlarini bolalar mustaqil o'zlari kompyuterda bloklarni siljitish orqali bajaradi. MTT tarbiyalanuvchilariga elementar matematik bilim berish jarayonida informatika va axborot texnologiyalarining vositasi bo'lgan kompyuterlardan foydalanilganda, bolalarning faolliklari va qiziqishlari shakllanadi, an'anaviy shakldagi mashg'ulotga solishtirganda samaradorligi ortadi.

Qo'llanadigan o'quv materiallar informativ, strukturalashgan, tushunarli va kompakt bo'lishi shart. So'nggi talab shu bilan bog'liqki, katta hajmdagi axborot monitor ekranidan qiyin idrok etiladi. Diqqatning susayishi, charchoq sezish, motivatsiya darajasining pasayishi buning oqibati bo'lishi mumkin. Psixologiya, muhandislik didaktikasi va ergonomika nuqtai nazaridan material ekranda vertikal aylanishsiz to'liq aks etadigan variant optimal hisoblanadi.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan elektron o'quv resurslari katta yoshdagi maktab tarbiyalanuvchilariga vaqt kategoriyasi bo'yicha tushunchalarni shakllantirishga mo'ljallangan.

Masalan kunlar va oylar mavzusidagi tushunchalarni shakllantirishga doir mashqlarimiz kunlarning nomlanishi va ularni tartibli joylashtirish ko'nimasini hosil qiladi.



Bu mashqda tarbiyalanuvchi kunlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirishi kerak bo'ladi. Keyingi kategoriya bu oylar va mavsumlar haqidagi tushunchalarga mo'ljallangan. Bunda dastavval oy nomlari va ularning qaysi faslga ta'luqligi o'rganiladi. Bu mashqlarda multimedik imkoniyotlardan keng foydalanilgan. Ovozlashtirilgan holda tashkil etiladi.



Mavsumlarni o'rgatishda ularning simptomlari tasvirlangan video esedan foydalanildi. Bu usul tarbiyalanuvchilarda vizual qabul qilish va hikoya qilib berish ko'nikmalarni shakllantiradi va uzoq vaqt xotirada saqlanishini ta'minlaydi.



Xulosa qilib aytganda elektron ta'lim resurslari bolalarda o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, materiallarning multimedik tasvirlanishi ularda tushunchalarni terengroq onglashga va xotirada uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абульханова, К.А. Время личности и время жизни / - СПб.: Алетейя, 2001. - 304 с.
2. Алламбергенова М. Разработка и использование интерактивных учебных комплексов в учебном процессе.// Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан – 2010. -№ 3 -95-97 стр.



**AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
1-son**

Nashr qilingan sana: 25.02.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“AJER INTER” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172